


**Yanvar –iyun 2018 yil**


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar – iyun oylarida 5462,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 foizga oshdi. Shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 111,9 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 122,3 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 8,2 foizni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati (mlrd. so'm, foizda)**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahrining ulushi 28,7 foizni, Urgut tumani 13,5 foiz, Pastdarg'om tumani 7,2 foiz, Kattaqo'rg'on shahri 4,7 foiz va Samarqand tumani 7,0 foiz chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.

### **Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, (foizda)**



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 1461,9 ming so'mni tashkil etdi, 2017 yil yanvar-iyun oylarida 1192,6 ming so'mni tashkil qilgan edi.

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri 2931,0 ming so'm, Samarqand shahri 2947,6 ming so'm va Paxtachi tumanida 1578,0 ming so'm kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 111881,6 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 2,1 foizni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1461,9 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,1 foizni tashkil etdi. Shundan Samarqand shahri 2947,6 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 103,4 foizni, Kattaqo'rg'on shahri 2931,0 ming so'm va 101,2 foizni, Jomboy tumani 896,9 ming so'm va 104,9 foizni, Samarqand tumani 1588,7 ming so'm va 100,5 foizni, Urgut tumani 1521,2 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 99,5 foizni tashkil qildi.




Hududlar nomi	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1461,9</b>	<b>102,1</b>
Samarqand sh.	2947,6	103,4
Kattaqo'rg'on sh.	2931,0	101,2
Bulung'ur	1422,2	103,8
Jomboy	896,9	104,9
Ishtixon	727,5	100,4
Kattaqo'rg'on	784,8	100,4
Naripay	1006,2	101,1
Nurobod	1506,3	102,3
Oqdaryo	911,2	103,8
Payariq	853,0	105,0
Pastdarg'om	1162,4	102,4
Paxtachi	1578,0	103,3
Samarqand	1588,7	100,5
Tayloq	887,3	102,5
Urgut	1521,2	99,5
Qo'shrabot	1407,4	103,3

## **KICHIK TADBIRLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI**

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,1 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,8 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 3703,6 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 67,8 foizni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi 1313,3 mlrd. so'mni, o'tgan yilga nisbatan 100,4 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 24 foizni tashkil etdi.